

– talaba mustaqil tushunishda yuritadi, olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

– talaba olgan bilimni amalda qoʻllay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

– talaba fan dasturini oʻzlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) boʻyicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

## XII. FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI


| Asosiy adabiyotlar     |   |
|------------------------|---|
| 1.                     | Tadbirkorlik (biznes) huquqi. Darstlik/ X.Azizov mas'ul muharrirligida. – T.: TDYU, 2018. – 316 bet.  |
| 2.                     | O'zbekistonda tadbirkorlik qonunchiligining rivojlanish istiqbollari. Kanyazov Y., Azizov X. va boshqalar. – Toshkent: TDYU, 2017. – 243 bet.   |
| 3.                     | Tadbirkorlik subyektlari va ularning turlari. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi: Sh. Ro'zinazarov, O. Oqyulov, X. Azizov, I. Turaboyev, M. Berdikulov, F. Isayeva, U. Saydaxmedov, B. Xudoybergenov, B. Normatov, I. Raxmatov, J. Askarov. – Toshkent: TDYU, 2018. – 148 bet. |
| 4.                     | Tadbirkorlik qonunchiligining rivojlanishi: milliy va xorijiy tajriba. Risola. /Azizov X.T., Askarov J.T., Berdiqulov M.A., Mamalatipov F.A. – Toshkent: TDYU, 2017. – 92 bet.  |
| Qo'shimcha adabiyotlar |   |
| 1.                     | Azizov X., Bakayev Sh., Nazarov Sh. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarini himoya qilishning huquqiy asoslari. – T.: Akademiya, 2014. – 188 b.   |
| 2.                     | Azizov X. T., Shirinov J., Bakayev Sh. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2013. – 114 b.   |
| 3.                     | Azizov X. T. Aholi farovonligini ta'minlashda fermer harakatining roli. – T.: TDYU nashriyoti, 2013.  |
| 4.                     | Azizov X. T., Berdikulov M. A. Aksiyadorlik jamiyatlari, ularda aksiyadorlarga dividend to'lashning huquqiy masalalari. // Huquq va burch ijtimoiy-huquqiy jurnal. – 2015. – №4(12). – B.52-54.   |
| 5.                     | Azizov X. T. Konstitutsiya – xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asosi. – T.: Akademiya, 2019. – 72 bet.  |

### Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.
2. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
3. <http://www.xs.uz> – “Xalq so'zi” gazetasi sayti.
4. <https://www.lex.uz/classifiers/7658> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

### ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



«TASDIQLAYMAN»

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b

prof. S.U.Xodjaniyozov

2025 yil

### “BIZNES HUQUQ”

#### FAN DASTURI

(2025-2026 o'quv yili 3 kurs)  
(ikkinchi mutaxassislik uchun)

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq  
Ta'lim sohasi: 420 000 – Huquq  
Bakalavriat yo'nalishi: 60420100 – Yurisprudensiya

Urganch 2025

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Kengashining  
2025 yil \_\_\_ avgustdagi \_\_\_ - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv ishlar bo'yicha prorektor  S. U. Xodjanilyazov

O'quv-uslubiy boshqarma  
boshlig'i:  G. R. Matlatipov

Mazkur fan dastur "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti Kengashining  
2025 yil "\_\_\_" \_\_\_dagi yig'ilishida muokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya  
etilgan (№ \_\_\_-sonli bayonnomasi)

Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar  
fakulteti dekani:  I.S. Abdullayev

Mazkur fan dastur Huquq kafedrasining 2025 yil "\_\_\_" \_\_\_dagi  
yig'ilishida muokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (№ \_\_\_-sonli  
bayonnomasi)

Huquq kafedrasini mudiri:  U.Q. Hajiyev

| Fan/modul kodi<br>BIZNH    | O'quv yili<br>2025-2026                | Semestr<br>5              | ECTS – Kreditlar<br>6           |
|----------------------------|--|---------------------------|---------------------------------|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek                  |                           | Haftadagi dars<br>soatlari<br>6 |
| Fanning<br>nomi            | Auditoriya<br>mashg'ulotlari<br>(soat) | Mustaqil ta'lim<br>(soat) | Jami yuklama<br>(soat)          |
| 1. BIZNES<br>HUQUQ         | 90                                     | 90                        | 180                             |

### I. FANNING MAZMUNI

O'zbekiston Respublikasida yuristlarni tayyorlashda ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustavor vazifalaridan biriga aylandi. Yangicha islohotlar olib borilayotgan Yangi O'zbekistonni qurish uchun tinmay izlanishlar olib borilayotgan bir paytda yuridik soha rivojida ham bevosita yangilik va o'zgarishlar qilinishi aynan zaruradir. Shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2020 yil 29-apreldagi PF-5987-sonli "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 16-maydagi 259-sonli "2022-2023-yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan.

Ushbu fan dasturi bo'lajak yuristlarni biznes huquqqa doir bilim va ko'nikmalarni egallash va olgan bilimlarni amaliyotga qo'llay olish masalalarini ham yoritadi. Bu, albatta, keng qamrovli pedagog kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirishga olib keladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda biznes huquqi tushunchasi va turlari, biznes huquqiy munosabatlar, biznes faoliyati subyektlari, biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish, biznes subyektlarining bankrotligi, korxonalarini davlat tassarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, biznes faoliyatining mulkiy asoslari, biznes shartnomalari, tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi, biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish, qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi, biznes faoliyatida yuridik xizmat, tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati, biznes subyektlarining javobgarligi, raqobat va uning huquqiy asoslari haqidagi ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarda biznes huquqi tushunchasi va turlari, biznes huquqiy munosabatlar, biznes faoliyati subyektlari, biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish, biznes subyektlarining bankrotligi, korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, biznes faoliyatining mulkiy asoslari, biznes shartnomalari, tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi, biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish, qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi, biznes faoliyatida yuridik xizmat, tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati, biznes subyektlarining javobgarligi, raqobat va uning huquqiy asoslari haqidagi umumnazariy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

## **II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **I-modul. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni.**

##### **Fanning nazariy asoslari.**

##### **1-mavzu. Biznes huquqi tushunchasi va manbalari**

Biznes huquqi tushunchasi, predmeti va uning boshqa huquqiy fanlardan farqi. Bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida biznes huquqining roli. Biznes huquqi manbalari. Xalqaro huquqning tushunchasi, mohiyati va rivojlanish tarixi.

##### **2-mavzu. Biznes huquqiy munosabatlar.**

Biznes huquqiy munosabat tushunchasi va ishtirokchilari. Biznes huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqva majburiyatlarini vujudga kelish asoslari. Biznes huquqiy munosabatlar turlari.

##### **3-mavzu. Biznes huquqi subyektlari.**

Huquq subyekti tushunchasi va biznes huquqi subyektlari. Biznes huquqi subyektlarining turlari va tasnifi. Biznes huquqi subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish. Biznes huquqi subyektlarining huquqiy holati.

##### **4-mavzu. X Biznes huquqi subyektlar faoliyatini qayta tashkil etish va tugatish**

Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish tushunchalari. Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish va tugatish asoslari. Biznes huquqi subyektlarini qayta tashkil etish turlari. Biznes huquqi subyektlari faoliyatini tugatishning usullari. Biznes huquqi subyektni qayta tashkil etish va tugatish tartibi..

##### **5-mavzu. Biznes huquqi subyektlarning bankrotligi**

Bankrotlik tushunchasi va uning vazifalari. Bankrotlik to'g'risida qonunchilik. Sudgacha sanatsiya. Bankrotlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rib chiqish tartibi. Kuzatuv. Sud sanatsiyasi. Tashqi boshqaruv. Kelishuv bitimi va uni tuzish tartibi. Bankrot korxonani tugatish.

##### **6-mavzu. Korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.**

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tushunchasi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslari. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish subyektlari va obyektlari. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish usullari. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tartibi.

##### **7-mavzu. Biznes faoliyatining mulkiy asoslari**

Mulk huquqi biznes faoliyatining asosi sifatida. Xususiy mulk asosida biznes faoliyatini yuritish. Biznes subyektlarining mol-mulki obyektlari. mavzu.

##### **8-mavzu. Biznes shartnomalari Reja:**

Biznes shartnomasi tushunchasi. Biznes shartnomasi subyektlari. Biznes shartnomalarini tuzish va bajarish. Biznes shartnomalarini o'zgartirish va bekor qilish.

##### **9-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi.**

Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi va uning huquqiy asoslari. Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari va ularning turlari. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish usullari.

##### **10-mavzu. Biznes faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir qilishning huquqiy asoslari**

Biznes faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. Biznes faoliyatini tartibga solishga qaratilgan soliq qonunchiligi. Biznes subyektlarining soliq majburiyatlari, Biznes subyektlarining soliq majburiyatlari yuzasidan javobgarligi.

##### **11-mavzu. Qimmatli qog'ozlar bozori va birjalar faoliyatining huquqiy tartibga solinishi**

Qimmatli qog'ozlar va qimmatli qog'ozlar bozori tushunchasi, turlari. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi qonunchilik. Qimmatli qog'ozlar muomalasi ustidan nazorat. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari. Fond birjasining huquqiy maqomi va faoliyati.

##### **12-mavzu. Biznes faoliyatida yuridik xizmat**

Yuridik xizmat to'g'risidagi qonunchilikning rivojlanishi. Yuridik xizmatning huquqiy holati. Yuridik xizmat faoliyatining asosiy yo'naltirishlari.

##### **13-mavzu. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati.**

Biznes yurituvchi subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati o'rnatishning zarurligi. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari. Biznes yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish turlari. Nazorat qiluvchi organlar va ularning vakolatlari.

##### **14-mavzu. Xo'jalik nizolarini hal qilish**

Xo'jalik nizolari tushunchasi va ularning kelib chiqish asoslari, Xo'jalik nizolarini sudgacha, talabnoma kiritish tartibida hal etish. Xo'jalik nizolarini hal qiluvchi organlar. Hakamlik sudlarida xo'jalik nizolarini hal qilishning huquqiy asoslari va istiqbollari.

**15-mavzu. Biznes munosabatlarida javobgarlik.**

Javobgarlik tushunchasi va turlari. Shartnomaviy majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada ajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik Biznes faoliyatida ma'muriy va jinoiy javobgarlik asoslari.

**Ma'ruza mavzularining soatlar bo'yicha taqsimlanishi**

| No               | Ma'ruza mavzulari   | Dars soatlari hajmi |
|------------------|---|---------------------|
| <i>5-semestr</i> |   |                     |
| 1.               | Biznes huquqi tushunchasi va turlari                                  | 2                   |
| 2.               | Biznes huquqiy munosabatlar   | 2                   |
| 3.               | Biznes faoliyati subyektlari  | 2                   |
| 4.               | Biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish.               | 2                   |
| 5.               | Biznes subyektlarining bankrotligi                                    | 2                   |
| 6.               | Korxonalarni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish      | 2                   |
| 7.               | Biznes faoliyatining mulkiy asoslari                                  | 2                   |
| 8.               | Biznes shartnomalari  | 2                   |
| 9.               | Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi              | 2                   |
| 10.              | Biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish.          | 2                   |
| 11.              | Qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi | 2                   |
| 12.              | Biznes faoliyatida yuridik xizmat                                     | 2                   |
| 13.              | Tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati             | 2                   |
| 14.              | Xo'jalik nizolarini hal qilish  | 2                   |
| 15.              | Biznes munosabatlarida javobgarlik                                    | 2                   |
| <b>Jami</b>      |   | <b>30</b>           |

**III. SEMINAR MASHG'ULOT MAVZULARI MASHG'ULOTLAR**

Seminar mashg'ulot mavzulari mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va

boshqalar tavsiya etiladi. Mashg'ulotlar faol interaktiv meto'dlar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**Seminar mashg'ulot mavzularining soatlar bo'yicha taqsimlanishi**

| No               | Seminar mashg'ulot mavzulari  | Dars soatlari hajmi |
|------------------|---|---------------------|
| <i>5-semestr</i> |   |                     |
| 1.               | Biznes huquqi tushunchasi va turlari                                  | 2                   |
| 2.               | Biznes huquqi tushunchasi va turlari                                  | 2                   |
| 3.               | Biznes huquqiy munosabatlar   | 2                   |
| 4.               | Biznes huquqiy munosabatlar   | 2                   |
| 5.               | Biznes faoliyati subyektlari  | 2                   |
| 6.               | Biznes faoliyati subyektlari  | 2                   |
| 7.               | Biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish                | 2                   |
| 8.               | Biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish                | 2                   |
| 9.               | Biznes subyektlarining bankrotligi                                    | 2                   |
| 10.              | Biznes subyektlarining bankrotligi                                    | 2                   |
| 11.              | Korxonalarni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish      | 2                   |
| 12.              | Korxonalarni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish      | 2                   |
| 13.              | Biznes faoliyatining mulkiy asoslari                                  | 2                   |
| 14.              | Biznes faoliyatining mulkiy asoslari                                  | 2                   |
| 15.              | Biznes shartnomalari  | 2                   |
| 16.              | Biznes shartnomalari  | 2                   |
| 17.              | Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi              | 2                   |
| 18.              | Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi              | 2                   |
| 19.              | Biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish           | 2                   |
| 20.              | Biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish           | 2                   |
| 21.              | Qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi | 2                   |
| 22.              | Qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi | 2                   |
| 23.              | Biznes faoliyatida yuridik xizmat                                     | 2                   |
| 24.              | Biznes faoliyatida yuridik xizmat                                     | 2                   |
| 25.              | Tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati             | 2                   |
| 26.              | Tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati             | 2                   |
| 27.              | Xo'jalik nizolarini hal qilish  | 2                   |
| 28.              | Xo'jalik nizolarini hal qilish  | 2                   |

|    |                                    |           |
|----|------------------------------------|-----------|
| 29 | Biznes munosabatlarida javobgarlik | 2         |
| 30 | Biznes munosabatlarida javobgarlik | 2         |
|    | <b>Jami</b>                        | <b>60</b> |

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni tashkil etish:

"Biznes huquq" fanidan mustaqil ta'limga 90 soat ajratilgan. Mustaqil ta'lim ma'ruza, seminar mashg'ulot mavzulari asosida tashkil etiladi.

1. Darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish. Bunday tashkiliy shakl o'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil bilim olishda konspekt usulidan foydalaniladi.

2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bavon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5-6 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

3. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya va maqolalar), referatlar, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

4. Fanlar bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o'rganish. Bu ish ham semester davomida amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

5. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli talabalar tomonidan o'quv jarayonida o'zlashtirib borilishi tavsiya etiladi.

6. Faol o'qitish metodidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. Talabalar tomonidan ta'lim, fan va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha tayyorlangan faol o'qitish metodlarini (munozara, aqlni charxlash, bumerang, klaster v.b.) qo'llagan dars mashg'ulotlari nazarda tutiladi.

7. Avtomatlashtirilgan o'rganuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu esa ma'ruza mashg'ulotlari doirasida ham seminar mashg'ulot mavzulari mashg'ulotlarga tayyorgarlik doirasida ham olib borilishi mumkin.

8. O'quv rejasidagi ayrim fanlar bo'yicha eksternat.

9. Masofaviy ta'lim. Elektron darslikdan foydalanish tavsiya etiladi.

Talaba mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagilardan foydalanadi:

- darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanib o'quv reja mavzularini o'rganish;

- maxsus va davriy-ilmiy uslubiy adabiyot manbalaridan foydalanib bilimlarini mustahkamlash;

- yangi texnika, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.

#### Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

| №                | Mustaqil ta'lim mavzulari   | Dars soatlari hajmi |
|------------------|---|---------------------|
| <i>5-semestr</i> |   |                     |
| 1.               | Biznes huquqi tushunchasi va turlari                                  | 6                   |
| 2.               | Biznes huquqiy munosabatlar   | 6                   |
| 3.               | Biznes faoliyati subyektlari  | 6                   |
| 4.               | Biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish.               | 6                   |
| 5.               | Biznes subyektlarining bankrotligi                                    | 6                   |
| 6.               | Korxonalarni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish     | 6                   |
| 7.               | Biznes faoliyatining mulkiy asoslari                                  | 6                   |
| 8.               | Biznes shartnomalari  | 6                   |
| 9.               | Tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi              | 6                   |
| 10.              | Biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish.          | 6                   |
| 11.              | Qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi | 6                   |
| 12.              | Biznes faoliyatida yuridik xizmat                                     | 6                   |
| 13.              | Tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazorati             | 6                   |
| 14.              | Xo'jalik nizolarini hal qilish  | 6                   |
| 15.              | Biznes munosabatlarida javobgarlik                                    | 6                   |
|                  | <b>Jami</b>   | <b>90</b>           |

*Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan uni taqdimot (SLAYD) qilish tavsiya etiladi.*

#### V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- biznes huquqning tushunchasi, mohiyati va rivojlanish tarixi.
- biznes huquq manbalari.
- biznes huquq sub'ektlari.
- biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish bilishi;
- biznes huquq ob'ektlari.
- biznes huquqiy munosabatlar.
- korxonalarni davlat tassarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish.
- biznes subyektlari faoliyatiga soliqlar orqali ta'sir etish.
- qimmatli qog'ozlar va birjalar faoliyatini huquqiy tartibga solinishi;
- biznes faoliyatida yuridik xizmatni o'zlashtirish.
- tadbirkorlik subyektlar faoliyati ustidan davlat nazoratini bilish.
- xo'jalik nizolarini hal qilish.
- qurolsizlantirilgan va betaraf (neytral) hududlar.
- biznes munosabatlarida javobgarlik bo'yicha malakalariga ega bo'lishi;

- biznes subyektlarining qayta tashkil etish va tugatish.
- tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy tartibga solinishi bo'yicha kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

#### VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminar mashg'ulot mavzularilar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish

#### VIII. Talabalar bilimini baholash

Talaba bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish baholash tizimi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. (NIZOM -<https://lex.uz/docs/3916793>).

#### IX. O'QUV SOATLARI

Ushbu fan 3 semestr davomida o'qitiladi va o'quv soatlari quyidagicha:

| Semestr | Haftalar soni | Ma'ruza | Seminar mashg'ulot mavzulari | Jami auditoriya soati    | Mustaqil ta'lim | Jami yuklama | Kredit miqdori |
|---------|---------------|---------|------------------------------|--------------------------|-----------------|--------------|----------------|
| 5       | 15            | 30      | 60                           | 90<br>(haftasiga 6 soat) | 90              | 180          | 6              |

#### X. NAZORAT TURLARI

1.1. Semestr davomida fandan talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

1.2. Oraliq nazorat semestrning 11-12 haftalarida talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida 1 marta o'tkaziladi.

1.3. Talabaning Seminar mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi

tomonidan baholab boriladi. Baholash III bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, talabaning ma'ruza va seminar (ma'ruza va seminar mashg'ulot mavzulari) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi Universitetning Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida baholash orqali olib boriladi va u quyidagilardan iborat:

- tizimda fanning har mavzusi bo'yicha belgilangan test yoki yozma topshiriqlarini bajarilganligi asosida baholanadi;

- mustaqil ish natijasini belgilangan muddatgacha tizimning "Mustaqil ish topshiriqi" bo'limiga qistiradi, baholash III-bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

1.4. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda 1 ta nazariy savol (shu mavzuga doir misol ham beriladi)ga yozma ish javobi bahosi (III bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida) hamda uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari o'rtachasi hisoblanib yaxlitlab qo'yiladi.

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, Talabani oraliq nazorat turi quyidagicha baholanadi:

- 30 ta nazariy va amaliy test savollariga Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida javob berish natijalari;

- semestr davomida 1.3 banddagi topshiriqlarni bajarish baholari hisobga olinib "2", "3", "4" va "5" bilan umumlashtirib baholanadi.

1.5. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash (III bo'limda nazarda tutilgan mezonlar asosida) maqsadida 3 ta savol berish orqali og'zaki shaklda o'tkaziladi:

1 savol: nazariy

2 savol: nazariy

3 savol: amaliy

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida 30 ta test savollari berish orqali Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish ushbu shakli kafedra tomonidan belgilanadi.

#### XI. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

Talabalarining bilimni quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;